

**AMALIY LANDSHAFTSHUNOSLIKNING AHAMIYATI****Madaminova Dilnavoz Dilshodbek qizi***Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amaliy landshaftshunoslik vujudga kelishi va rivojlanishi to'g'risida ma'lumot beriladi. Amaliy landshaftshunoslikning maqsadi va vazifalari, tadqiqot bosqichlari va landshaftlarni baholash haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** amaliy landshaftshunoslik, landshaftlarni baholash, amaliy tadqiqot, baholash obyekti, baholash subyekti, tuproq, iqlim, relief.*

KIRISH

Amaliy landshaftshunoslikning tub mohiyati xalq xo'jaligining turli xil amaliy maqsadlarni hal etishda landshaft haqidagi ta'limotning nazariy tamoyillari va usullardan foydalanish va tadbiq etishdan iborat. Landshaftshunoslikning amaliy jihatlaridan biri shuki, asosan xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'ining talablaridan kelib chiqqan holda landshaftlarni ta'riflovchi turli ma'lumotlar bilan ta'minlab turish amaliy jihati hisoblanadi.

Masalan, landshaft xaritalari tabiiy geografik rivojlantirish natijalari landshaftlarning batafsil ta'rifi va boshqalar kiradi. Landshaftlarga oid ma'lumotlarni amaliyotga qo'llashning yana bir turi landshaftlarni xalq xo'jaligining ma'lum tarmoqlari maqsadlarida baholash mumkin. Qishloq xo'jaligi maqsadlarida yo'l qurilishi, shaharlarning bunyod etilishi, sog'likni saqlash va rekreatsiya maqsadlarida qilingan ishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Landshaftshunoslik fanining maqsadi tabiiy muhitni o'rganish va baholash, bundan tashqari tabiiy muhitni yaxshilash, samaradorligini oshirish, resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanishning ilmiy nazariy asoslash maqsadi hisoblanadi. Xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlaridagi yirik va muhim dasturlarni ishlab chiqishda, turli inshootlarning qurilishida, loyiha oldi izlanishlarida landshaftshunoslarning faol ishtiroki bo'lishi kerak.

Amaliy landshaftshunoslik bo'yicha qilingan izlanishlar amaliy landshaft xaritalariga asoslangan holda olib borilishi kerak. Bunday xaritalar odatda yagona dastur metodika bo'yicha tuzilib, boshlang'ich tadqiqotlar ma'lumotlariga va natijalariga asoslangan, ya'ni geotizmlarning obyektiv umumilmiy tahliliga tayangan bo'ladi. Chunki ilmiy nazariy landshaftshunoslikda ham amaliy landshaftshunoslikda xam tadqiqot obyekti bir, ya'ni turli ko'lamdagi geotizimlar hisoblanadi.

Ilmiy nazariy landshaft tadqiqotlaridan amaliy landshaft izlanishlariga o'tishda geotizimlarning ko'lami izlanishlarining qaysi ko'lamda olib borishini aniqlab olish



ahamiyatlidir. Chunki izlanishlarning maqsadiga bog'liq holda uning bevosita izlanishi maydoning katta kichikligiga qarab obyekt ham masshtabi ham turlicha bo'lishi mumkin.

Landshaftlarda tadqiqot ishlari bosqichma-bosqich bajariladi. Birinchi bosqichda asosan landshaftlarni aniqlash, xaritaga tushirish, ularni tafsifini tuzishdan ishlari bajariladi, keyingi bosqichda landshaftlar baholanadi. Bunda har bir landshaft inson hayoti va salomatligini hisobga olib yangi yerlarni o'zlashtirish turli sanoat va xo'jalik qurilishlari rekreatsiya kabi maqsadlarda baholanishi va tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

Hozirgi kungacha bajarilgan amaliy landshaft tadqiqotlarining ko'pchiligi shu kabi baholash ishlariga bag'ishlangandir. Amaliy landshaftshunoslikning yo'nalishi bu baholash hisoblanadi. Landshaftlarni xalq xo'jaligining u yoki bu tarmoqning rivojlantirish maqsadida baholanadi. Landshaftlarni baholashning asosiy maqsadi landshaftlarning yaroqliligi hamda qulay yoki noqulayligi aniqlanadi. Bundan tashqari landshaftlarni o'zlashtirishda ulardan foydalanishning qulay va yaxshi variantlarini aniqlab beradi. Tabiat komplekslarni baholashning uch jihati bo'lishi kerak.

Birinchi baholashning obyekt ya'ni nima baholanishi kerakligi aniq bo'lishi kerak. Bunda tabiat komponentlaridan biri masalan iqlim, relyef, tuproq yoki o'simlik baholash obyekt bo'lishi mumkin.

Ikkinchi baholashning subyekt ham bo'lishi lozim, ya'ni tabiat komplekslar yoki landshaftlarni baholanayotganda nima uchun baholayotganini aniqlab olish kerak. Subyekt sifatida sanoat qurilishi yoki yo'l qurilishini olishimiz mumkin.

Uchinchi subyekt va obyekt tashqari baholanayotgan vaqtdagi iqtisodiy geografik, sotsial, tabiiy geografik ilmiy texnik sharoit kabilarni hisobga olinishi kerak. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi uchun baholashda landshaftlarning qishloq xo'jaligida foydalanishini cheklashi mumkin bo'lgan xususiyatlar relyefi, tuprog'i va yer osti suvlarini holatini aniqlab olishimiz kerak.

Landshaftlarni baholash dehqonchilik uchun qishloq xo'jaligida eng muhim hisoblangan uchta tabiat komponentlari iqlim, tuproq, relyef bo'yicha bajariladi. Yaylov chorvachilik uchun asosan o'simlik qoplamiga qarab baholanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining o'sishi va rivojlanishiga iqlim, tuproq, relyefning turlicha ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun baholash usullari ham turlicha bo'ladi.

Landshaftlarning qishloq xo'jalik uchun ahamiyatli bo'lgan va baholanishi zarur bo'lgan tomonlaridan biri tuproqlardir. Farg'ona vodiysida tarqalgan tuproqlarni baholash darajalari quyidagi jadvalda keltirilgan.



Tuproq nomi	Baholash ballari
Sug'oriladigan bo'z tuproqlar va bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq tuproqlar	100
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi sug'oriladigan botqoq-o'tloq tuproqlar	80
Sug'oriladigan bo'z tuproqlar	70
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq tuproqlar quruq yerlar	40
Yupqa qatlami yaxshi rivojlanmagan allyuvial tuproqlar	10

Yuqorida keltirilgan ballar bo'yicha baholangan tuproqlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan tabiat hodisalaring yoki ba'zi holatlarni hisobga olish uchun tuzatish koeffitsenti kiritish orqali baho kamaytirilishi mumkin. Masalan, tuproq qatlamining yuvilib ketganligi, mexanik tarkibi shart-sharoitlar yer osti suvlarining yuza yoki chuqur bo'lishi va boshqalar. Landshaftlardan qishloq xo'jaligida foydalanishda relyef ham katta ahamiyatga ega. Chunki relyefi qulay hudud bo'lsa qishloq xo'jaligida kengroq foydalaniladi.

XULOSA

Amaliy landshaftshunoslik landshaftshunoslikdan olgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, landshaftshunoslikning asosiy jihati shuki, asosan xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'ining talablaridan kelib chiqqan holda landshaftlarni ta'riflovchi turli ma'lumotlar bilan ta'minlab turishi amaliy jihati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanov I.A. G'ulomov P.N. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, UzMU - 2002.
2. Haydarov Q.X. Hojimatov Q.X. O'zbekiston o'simliklari. Toshkent, O'qituvchi - 1992.
3. Zokirov SH.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. "Universitet", 1998.
4. Zokirov SH.S. Landshaftshunoslik asoslari. "Universitet", 1994.